

тизими барқарорлигига салбий таъсир қилади. Шундай экан, молиявий таълимни ривожлантириш ва аҳоли ўртасида кредит маданиятини ошириш нафақат жисмоний шахслар учун, балки тижорат банклари ва умумий молиявий тизим учун ҳам муҳим аҳамиятга эга.

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI MOLİYALASHTIRISHDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Sayfullayev Siddik Nosirovich
TDIU "Iqtisodiy statistika"
kafedrası dotsenti, PhD

Dunyo tajribasidan bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida asosiy ishtirokchi sifatida qaraladi. Aynan kichik va o'rta biznes bozorda kuchli raqobat muhitining yaratilishi, milliy ishlab chiqarish raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, jahon amaliyotidan ko'rinadiki, kuchli raqobat muhitida yengib chiqqan kichik va o'rta biznes sub'ekti yirik biznesga asos bo'ladi. Shunday ekan, mamlakatimizda kichik va o'rta biznes (KO'B) iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga olib keladi. Bunday tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishda aholining moliyaviy savodxonligi muhim rol o'ynaydi. Chunki moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega aholi tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli²¹⁹, "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-sonli²²⁰, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-37-sonli²²¹ Farmon va Qarorlarida kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik sub'ektlariga yetarlicha yordam ko'rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish masalalarini xalq etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligi aytib o'tilgan.

Moliyaviy savodxonlik – o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish mahorati. U moliyaviy bozorning o'ziga xosliklarini bilish, bozor ishtirokchilari

²¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli Qarori. Toshkent sh., 2023 yil 14 sentyabr// https://lex.uz/docs/6609110?utm_source=chatgpt.com

²²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-sonli Farmoni. Toshkent sh., 2023 yil 10 noyabr// <https://lex.uz/uz/docs/6658633>

²²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-37-sonli Qarori. Toshkent sh., 2024 yil 20 yanvar// https://lex.uz/ru/docs/6767101?utm_source=chatgpt.com

tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlardan xabardor bo'lish hamda shu asosda qabul qilingan qaror mas'uliyatini zimmasiga olish degani hamdir²²².

Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha berilgan xilma-xil ta'riflar hamda uning turli manbalarda bayon etilgan asosiy jihatlariga tizimli yondoshgan holda, mazkur tushunchaning iqtisodiy mazmuni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beruvchi tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shunday ekan, mazkur tushuncha aholining moliya sohasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, u bilan bog'liq jarayon va voqealarni to'g'ri tushunishni anglatadi. Biroq, fikrimizcha, mazkur tarzdagi dastlabki tasavvur darajasida qolish moliyaviy savodxonlikning to'liq mazmunini yoritib bera olmaydi. Shunga ko'ra, ushbu tushuncha bilan bog'liq asosiy jihatlarini muayyan tizim asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Eng avvalo, ta'kidlash joizki, moliyaviy savodxonlik tushunchasi juda keng hisoblanadi. U aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqea va jarayonlar (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, ish haqi yoki nafaqa olish va h.k.)dan tortib nisbatan murakkab jarayonlar (masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqalar)da ishtirok etishigacha bo'lgan jihatlarini qamrab oladi.

Mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasining yuqori bo'lishi moliyaviy xizmatlar sohasi hamda KO'B sohasining ham jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash va kichik va o'rta biznes sub'ektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish imkoni paydo bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimizda ishsizlik darajasining yuqori bo'lishi sabablaridan biri "aholining aksariyat qismi tadbirkorlik sohasida, jumladan, ajratilayotgan kredit mablag'larini o'zlashtirish hamda oddiy moliya hisobotlarini yuritish bo'yicha yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega emas"²²³ ligi orqali ham izohlanadi.

Biroq, iqtisodiy ta'limning zamonaviy tizimi tarkib topgan mamlakatlarda ham fuqarolarning ahamiyatli qismi shaxsiy moliya masalalariga kuchsiz yo'naltirilgan bo'lishi mumkin²²⁴.

Moliyaviy savodxonlik va uning ahamiyati shundan iboratki, moliyaviy savodxonlik shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish, aktiv va passivlar o'rtasidagi farqni tushunish, daromad va xarajatlarni boshqarish ko'nikmalarini

²²² Ulug'murodov D. Moliyaviy savodxonlik nima? - <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyaviy-savodkxonlik-nima>.


²²³ Toshkent bo'yicha potentsial ishsizlik darajasi aytiladi. - <https://kun.uz/80101500>.

²²⁴ Шибаев С.Р., Шадрин Ю.А. Зарубежный опыт повышения финансовой грамотности населения // Финансы и кредит. 2015. № 24 (648). С. 27-33.

o'z ichiga oladi. KO'Bni rivojlantirishda quyidagi moliyaviy savodxonlikga ega bo'lish lozim deb hisoblaymiz:

- Bank va moliyaviy institutlar bilan samarali ishlash;
- Kapitalni to'g'ri boshqarish va investitsiya qarorlarini qabul qilish;
- Qonunchilik va moliyaviy mexanizmlardan foydalanish imkoniyati.

Fikrimizcha, KO'Bni rivojlantirishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish juda muhim hisoblanib, uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to'liq ifodalay olmaydi. Uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borish o'z navbatida mazkur tushunchaning turli (masalan, alohida shaxs, muayyan hudud aholisi, mamlakat aholisi) darajalarini tabaqalashtirishni taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. KO'Bni moliyalashtirishda aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning turli darajalar bo'yicha tabaqalanishi²²⁵

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish usullari KO'B sub'ektlari va aholining moliyaviy bilimlarini oshirish uchun quyidagi choralar ko'rilishi lozim deb hisoblaymiz:

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida kurslar va onlayn platformalar yaratish.
- Banklar, moliya muassasalari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda moliyaviy ta'lim loyihalarini amalga oshirish.

²²⁵ Муаллиф ишланмаси

- Televizion dasturlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali moliyaviy bilimlarni oshirish.

- Maktab va oliy ta'limda moliyaviy savodxonlik fanlarini joriy etish.

Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish jarayonida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy bilimlarni oshirish uchun davlat, xususiy sektor va ta'lim muassasalari hamkorlik qilishi lozim. Tegishli ta'lim, moliyaviy maslahatlar va texnologiyalardan foydalanish orqali KO'B sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin.

ИНСТИТУЦИОНАЛ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Туракулов Тимур Ахмаджонович

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини
ривожлантиришнинг илмий асослари ва
муаммолари илмий тадқиқот маркази*

Институционал ёндашув — замонавий иқтисодиёт назариясининг муҳим тармоқларидан бири бўлиб, жамиятдаги иқтисодий муносабатларни институциялар, яъни аниқ қоидалар, нормалар ва ташкилотлар асосида таҳлил қилишни назарда тутди. Мазкур ёндашув иқтисодий жараёнларни англашда фақат бозор механизмлари ёки давлат сиёсатини таҳлил қилиш билан чекланмай, балки иқтисодий муносабатлар шаклланишида асосий рол ўйнайдиган турли “қоидалар ўйини”ни кенг қамровли равишда ўрганади. Шу боисдан ҳам институционал ёндашув иқтисодиёт илмида тарихий ривожланиш жараёнларини, маданиятни ва турли даражадаги ташкилотларнинг аҳамиятини чуқур очиб бериш имконини беради.

Институционал ёндашув 19-аср охири ва 20-аср бошларида АҚШда юзага кела бошлаган. Бугунги кунда эса у турли мактаблар — “эски институционалистлар”, “янги институционал иқтисодчилар” ва бошқалар — орқали ривожланиб келмоқда. Эски институционалистлар (Торстейн Веблен, Жон Р. Коммонс, Уэсли Митчел каби) иқтисодий жараёнларни бежавотир (бевосита) тарихий, психологик ва ижтимоий факторлар орқали тушунтиришга урғу беришган. Янги институционал иқтисодчилар эса (Дугласс Норт, Рональд Коуз, Оливер Уильямсон каби) бозор муносабатлари ва иқтисодий қарорлар чиқариш жараёнини ҳуқуқий, сиёсий ҳамда иқтисодий институтлар билан боғлаб тушунтириб, транзакцион харажатлар, контрактационизация ва мулк ҳуқуқлари каби тушунчаларни иқтисод назариясида устувор ўринга олиб чиқди.

Янги институционал ёндашувда муҳим ўрин тутадиган тушунча — транзакцион харажатлардир. Транзакцион харажатлар бозордаги олди-сотди жараёнини ташкил этиш ва кузатиб бориш билан боғлиқ харажатлардир. Масалан, шартномалар тайёрлаш, назорат қилиш, маълумот олиш ёки тақчил ресурс учун кураш қилиш каби жараёнлар транзакцион харажатлар қаторидандир. Институционал ёндашув бу